

O'QUVCHILAR TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING HAMKORLIGI

PIRMATOVA DILNOZA KARIMOVNA

*Toshkent viloyati Zangiota tumani 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi Tarbiya fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning hamkorligi ahamiyati borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: hamkorlik, mahalla, tarbiya.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyiq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Shaxsning shakllanishi oilada boshlanadi. Bolaning olamni tanishi, odamlar bilan muomala va muloqotga o'rganishi, narsa va hodisalarga munosabati, mehnat ko'nikmasining hosil bo'lishi singari xususiyatlar dastlab oilada shakllanadi. Xalqimizning "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naqliga e'tibor berilsa, oilada farzandga to'g'ri tarbiya berishning naqadar muhimligi ayon bo'ladi. Bolalar tarbiyasiga e'tibor berib, ularga qo'shimcha dars o'tish, musiqa yoki kasb egallash bilan shug'ullantish, hunar o'rgatishga e'tibor berayotgan oilalarni ko'rganda kishi mamnun bo'ladi. Lekin hamma oila ham

bola tarbiyasiga yetarlicha e'tibor beradi, deb bo'lmaydi. Bolasi bilan shug'ullanishga vaqt yo'qligidan noliydigan, maktabga kam keladigan, farzandining qanday o'qiyotganini bilmaydigan beparvo ota-onalar kam emas. Bolasining nojo'ya xulqining sababchisi maktab va jamiyatdagi kamchiliklar deb o'zini oqlaydigan ota-onalar ko'plab topiladi. Bola tarbiyasi ota-ona zimmasidagi asosiy fuqarolik burchidir. Jamoatchilik tarbiya ishini olib borishda oilaga yordam beradi. Chunki maktab oila, jamoatchilik bilan birgalikda ishlagandagina yutuqqa erishdi. Oila, maktab va jamoatchilikning bola tarbiyasida hamkor bo'lishi haqida juda ko'p gapirilsada, lekin bu hamkorlik to'la ro'yobga chiqayapti, deb aytish qiyin. Albatta maktabga pedagog olimlar, adliya xodimlari va boshqalar jalb etilib, ma'lum muammo muhokama etiladi. Jamoatchilik maktabdagi, mahalladagi, ayrim oilalardagi tarbiya ishining mukammallashishida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Mahalladagi oilalarning iqtisodiy ahvolini yaxshilashda, kam ta'minlangan oilalarga yordam berishda hayrli ishlar qilinmoqda. Mahalla jamg'armasidan maktabning ayrim tadbirlarini moddiy ta'minlaydi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan, o'zaro munosabati nosog'lom oilalar bilan ishlaydi. Mahallalarda Navro'z, Mustaqillik kuni, Xotira va qadrlash kunlarini nishonlash va o'tkazish odat tusiga kirib bormoqda. Bu tadbirga o'qituvchi va o'quvchilar jalb etiladi. Mahalla faollari to'ylarni, turli marosimlarni o'tqazishga bosh-qosh bo'lmoqdalar. To'y va marosimlarda yoshlar va o'quvchilarning ishtiroki masalasiga, ularning o'zini tutishi, tartibiga e'tibor berilishini ijobiy hol deb hisoblash kerak. Mahallada keksalar va yoshlarning uchrashuvlarini tashkil etilishi, mahalla yig'ilishida tarbiyasi og'ir bolalarning ota-onalarini chaqirib, suhbatlar o'tkazilishi ham ijobiy natijaga ega. Eng muhimi yoshlar ongiga kattalarga hurmat, ishda, o'qishda, odamlar bilan muomala-munosabatda ota-onadan o'rnak olish, ota-bobolarimiz boshlagan ezgu ishlarni davom ettirishdek olijanob tuyg'ularni singdirishga e'tiborni qaratish lozim. Davlat hamda ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar va jamg'armalar kuchlarini birlashtirib, maktabga ko'maklashish hozirgi kun

talabi. Shundagina o'zbek xalqi hayotida umuminsoniy qadriyatlarga intilish, musulmonchilik, "o'zbekona" mehru oqibat, o'zaro hurmat kabi olijanob fazilatlar barqaror bo'ladi. Oila, maktabda olib borilayotgan tarbiya ishini mukammallashtirish, ayrim kamchiliklarni tugatish bo'yicha jamoatchilik olib borayotgan ishlari mufaqqiyatni ta'minlash uchun quyidagi talablarni bajarish kerak:

➤ Hamkorlikdagi faoliyatning mohiyatini, imkoniyatini, vazifalarini anglash;

- o'quvchilarning uyrush - turishi, tartibi sohasida maktab, oila va jamoatchilikning bir xildagi talablarini qo'yish;

➤ mahalliy sharoitni, aholining turmush tarsi va faoliyatini hisobga olib ishlash;

➤ tarbiyada sistemalilik, izchillik, uzviylikni ta'minlash.

Maktablarda oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar o'rganilib, tahlil qilinganda quyidagi ish uslublari mavjud ekanligi anglandi:

➤ ota-onalar bilan ishlaganda onalar maktabi, oilaviy tarbiya tajribalarini o'rganish, savol-javob kechalari, oilalararo musobaqalar, mehnatni to'g'ri tashkil qilgan ibratli oilalar, eng ozoda hovli singari tanlovlar o'tkazish;

➤ maktab o'qituvchilarining ota-onalar bilan ishlashi, ularning sinf xonalarini jihozlash, obodonlashtirishdagi hamkorligi;

-o'quvchilar bilan jonajon o'lka bo'ylab sayohatlar uyushtirish, "Balli qizlar", "Balli yigitlar", "nima, qachon, qayerda" musobaqasi, kasb haqida suhbatlar, to'garaklar, turli jamiyatlar tashkil etish, turli mavzuda ko'rik tanlovlar o'tkazish kabilardan iboratdir.

"Hunar-tuganmas xazina", "Vatanni sevmuq iymondandir", "Huquq va burch", "Vatan posbonlari" kabi mavzularda maktabni bitiruvchi o'quvchi yoshlar, o'qituvchilar, ota-onalar va mahalla faollari bilan

konferensiyalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ularda o'qituvchilar, chki ishlar boshqarmasi, huquq idoralari, masjid xodimlari ishtirok etib, Vatan, iymon, burch, odob-axloq, halollik, ma'naviyat, mehnat haqidagi fikr va mulohazalarini bayon etadilar. Oila, maktab va jamoatchilik bola tarbiyasiga yetarlicha e'tibor berib ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni izchil amalga oshirsa samarali bo'ladi. Lekin ular o'rtasida bog'lanish izchil bo'lmaydi. Hamkorlikda o'tkaziladigan bir-ikki tadbir tarbiyaning mukammallashi ta'minlay olmaydi. Oila tarbiyasini yo'lga qo'yish uchun maktabda ota-onalar pedagogik bilim va ko'nikmalarni, eng muhim, bola tarbiyasiga to'g'ri munosabatni shakllantiradigan tadbirlar zarur. Jamoat tashkilotlari oilaga ham moddiy va ma'naviy ko'maklashishda aniq reja asosida ish olib borsam, ijobiy natjalarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni
2. M.Inoyatova, A.Nosirov, M. Diyanova, G.Boymurodova "Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash"
3. "Boshlang'ich ta'lim" jurnal 7-son, 2011 yil